

**ABDURAUF FITRATNING “HIND SAYYOHI BAYONOTI”
ASARIDA O‘QUVCHILARDA TADBIRKORLIK KO‘NIKMALARINI
SHAKLLANTIRISH G‘OYALARI.**

*NDU “Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar
tarixi”*

yo‘nalishi tayanch doktoranti

“Profi University” nodavlat oliy ta’lim muassasasi

Navoiy filiali o‘qituvchisi

Ismatillayeva Mahliyo Muzaffar qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada *jadid ma’rifatparvar pedagogi Abdurauf Fitratning asarlarida mehnat, hunar tanlash, tashabbuskorlik, o‘quvchi yoshlarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga doir fikrlari o‘rganilib tahlil qilingan. Jumladan “Hind sayyohi bayonoti”, asarlaridagi fikrlarning zamonaviy ta’lim jarayoniga integratsiya qilinishi orqali o‘quvchilarda iqtisodiy tafakkur, mustaqil qaror qabul qilish va tashabbuskorlikni rivojlantirish imkoniyatlari asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Abdurauf Fitrat, tijorat, sabr, raqobat, tijorat madaniyati, “Hind sayyohi bayonoti”, ta’lim.*

Аннотация: *В данной статье изучаются и анализируются идеи современного просвещенного педагога Абдурауфа Фитрата в его работах о труде, выборе профессии, инициативе и формировании предпринимательских навыков у молодых студентов. В частности, интеграция идей из работ «Хинд саййохи байоноти» в современный образовательный процесс обеспечивает*

основу для развития экономического мышления, самостоятельности в принятии решений и инициативы у студентов.

Ключевые слова: Абдурауф Фитрат, торговля, терпение, простота, коммерческая культура, «Хинд саййохи байнони», образование.

Abstract: The pilot article analyzes the ideas of the innovative pedagogue Abdurauf Fitrat in his works about work, craft creation, initiative, and entrepreneurship in youth. In particular, the integration of the works of the "Hind Sayyohi Bayoni" into the modern educational process provides a basis for developing economic thinking, independent decision-making, and initiative in students.

Keywords: Abdurauf Fitrat, commerce, patience, competition, commercial culture, "Statement of the Indian Traveler", education.

Kirish: Jahon miqyosidagi globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyotini bevosita rivojlangan davlatlar qatorida saqlab qolishning asosiy omili yosh avlodning tadbirkorlik ko'nikmalariga ega bo'lishiga bog'liq. O'quvchilarda tadbirkorlik tafakkurini shakllantirish nafaqat iqtisodiy bilimlarni egallash, balki mustaqil fikrlash, tashabbus ko'rsatish, mas'uliyatni his etish va mehnat orqali qiymat yaratish kabi sifatlarni rivojlantirishni taqozo etadi. Shu bois ta'lim tizimida tadbirkorlik tarbiyasini milliy-ma'naviy meros asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan har bir sohadagi islohotlar tarixan xalqimizning ilg'or g'oyalariga asoslanadi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida yurtimizda demokratik erkin fuqarolik jamiyati qurish maqsadida jadid namoyondalari istiqloлга, milliy taraqqiyotga erishish uchun avvalo ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirishga, xalqni g'aflat uyqusidan uyg'onishga, yoshlarni zamonaviy ilmlarni, kasblarni o'rganishga chorladi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev 2023-yil 11-dekabrda “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlool va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida “Tilda, fikrda, ishda birlik” degan ezgu g‘oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g‘aflat botqog‘idan qutqarishning asosiy yo‘li – bilim va ma’rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda,”¹ deb bildilar.

Abadiyotlar tahlili: Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarni har jihatdan ijtimoiy faol shaxs qilib tarbiyalash uchun ma’naviy-mafkuraviy tarbiya bilan bir qatorda ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy bilimlar bilan ham qurollantirish asosiy vazifalardan biri qilib belgilab olingan. Ushbu maqolada ma’rifatparvar pedagog Abdurauf Fitratning “Hind sayyohi bayonoti” , asarida yoshlarga tadbirkorlik ko‘nikmalari bo‘yicha iqtisodiy tarbiya berish to‘g‘risidagi pedagogik fikrlari tahlil qilingan.

Muhokama: Maktab o‘quvchilarini tadbirkorlikga doir iqtisodiy bilimlar bilan tarbiyalash bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu o‘rinda eng avvalo o‘quvchilarda tadbirkorlikga xos xususiyatlarni shakllantirish asosiy ustuvor vazifa sanaladi.

Tadbirkorlikga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:

- Shug‘ullanayotgan soha bo‘yicha ilmga egaligi
- Tavakkalchilik
- Tejamkorlik
- Sabrlilik
- Oldinni ko‘ra olish

¹Mirziyoyev.Sh.M “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlool va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi
<https://yuz.uz/uz/news/jadidlar-milliy-ozlik-istiqlool-va-davlatchilik-goyalari-mavzusidagi-xalqaro-konferentsiya-ishtirokchilariga>

- Maqsad sari intilish
- Tadbirkorlik madaniyati
- Halollik bilan ish yuritish
- Yangilikga intiluvchanlik
- O'z nufuziga ega bo'lish
- Bozorni o'rganish va raqobatbardoshlik
- Resursdan samarali foydalanish

Yirik jadid namoyondalaridan biri Abdurauf Fitrat o'zining "Hind sayyohi bayonoti" asarida o'lka ahlining tadbirkorlik madaniyati va uning darajasi to'g'risida "Bu o'lkaning tijorati madaniyatli, rivojlangan mamlakatlar tijorati kabi taraqqiy etmagan bo'lsada, ammo hanuz umuman aholining qo'ldan chiqmagan. Agar isloh qilsalar, Buxoro ahli juda katta davlat va boylik egasi bo'lishlari mumkin."² deya fikrini bildirib o'lka aholisi tijoratni to'lagigicha qo'ldan boy bermaganligini, faqat, ularda rivojlangan davlatdagi kabi iqtisodiy va tadbirkorlik ilmi va madaniyati yetishmasligini ta'kidlaydi. Mamlakatning bunday holatdan chiqishning yo'li sifatida yoshlarga zamonaviy savdo ilmini berish, ta'lim va iqtisodiy bilimlarni rivojlantirishda deb biladi. Fitrat davlatning rivojlangan Yevropa davlati qatoriga kirishining yo'lini ilmida ekanligini, jadidchilik mafkurasining asosiy g'oyasi ilm orqali milliy va iqtisodiy taraqqiyotga erishishning asosiy tamoyili sifatida "Har bir millat taraqqiysi uchun asosiy sabab ilmdur..... Bir johil kishining ilm olishi uchun uch narsa lozim kelur: pul, madrasa, sa'y-amal."³ deya e'tirof etadi. Aynan ushbu fikrlar o'quvchilarda zamonaviy tadbirkorlikning iqtisodiy bilim, innovatsion fikrlash, boshqaruv madaniyati kabi ko'nikmalarini shakllantirishda bilim va kompetensiyalar birlamchi omil sifatida ko'rsatiladi. Fitrat har qanday sohani yetuk mutaxassisi bo'lishda dastlabki omil sifatida pul deb biladi. Bu zamonaviy tadbirkorlik ilmida dastlabki kapital, mablag'ni tejash, daromadni va kelajakni to'g'ri tahlil qilish ko'nikmasi hisoblanib bu uchun o'quvchilarda

² Fitrat A. Hind sayyohi bayonoti.//Tanlangan asarlar.1-jild-Toshkent..Ma'naviyat 2000. –B.-110.

³ Fitrat A. Hind sayyohi bayonoti.//Tanlangan asarlar.1-jild-Toshkent..Ma'naviyat 2000. –B.-117.

moliyaviy savodxonlik, harajatlarni to‘g‘ri taqsimlash kabi bilimlar shakllantirilishi zarurligini anglatadi. Ma‘rifatparvar pedagog ilm olish uchun ikkinchi asosiy shart ta‘lim muhiti deb e‘tirof etadi. O‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmasini shakllantirishning asosiy ta‘lim muhiti ta‘lim tizimidagi maktab, kasb-hunar maktablari, oliy ta‘lim va barcha ta‘lim dargohlari hisoblanadi. Fitraning fikricha har qanday bilim asosan qulay va innovatsion ta‘lim muhitda tasodofiy emas aksincha tizimli va izchil egallanadi. Uchinchi muhim omil sifatida o‘quvchining shaxs omili ya‘ni tirishqoqligi, tashabbuskorligi va faolligini ta‘kidlagan. O‘quvchida moddiy resurs sifatida dastlabki mablag‘ bor, tadbirkorlik va iqtisodiy bilimlarni egallagan bo‘lishi bilan bir qatorda o‘zda qat‘iyatlilik, tavakkalchilikka tayyorlik, raqobatbardoshlik, sabrlilik kabi xususiyatlarini shakllantirishi lozim.

Abdurauf Fitrat savdo-sotiq, tadbirkorlikning o‘ziga xos madaniyati, talablari va ularga amal qilish to‘g‘risida “Tijorat masalasi bashariyatning hayot-mamot masalasidir. Dunyo xalqlaridan birortasining ishi tijoratsiz amalga oshmaydi. Ayniqsa bizning davrimizda tijorat juda e‘tibor berishga arziydi”⁴ deb ta‘kidlaydi. Bu tijorat masalasi jamiyat tarqqiyoti va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlovchi asosiy omil ekanligini anglatadi va bu qarash o‘quvchilarda tadbirkorlik to‘g‘risida iqtisodiy tafakkurga ega bo‘lishlari lozimligini bildiradi. Rivojlangan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy rivoji tadbirkorliksiz bo‘lmasligi va tadbirkorlikning dunyoviy fikrlash, yangilikga intiluvchanlik, resurslardan samarali foydalanish kabi kompetensiyalarini o‘quvchilarda shakllantirish asosiy shart sifatida ko‘riladi.

Abdurauf Fitrat yoshlarda tanlagan kasbining kelajakda qanday darajada jamiyat uchun muhim ekanligini bilishlari, qilayotgan ishlarining kelajagi qanday darajada rivojlanishini ko‘ra olish qobiliyatiga ega bo‘lishini, tadbirkor kishi qilayotgan savdo turidan kelajakda bugungidan ko‘proq foyda ola olishini ko‘ra bilishi lozimligini “Siz kelajak haqida fikr yurutishni unutmang chunki har bir

⁴ Fitrat A. Hind sayyohi bayonoti.//Tanlangan asarlar.1-jild-Toshkent..Ma‘naviyat 2000. –B.-167.

kishining hayoti o'z ishining kelajagi bilan bog'liq. Ertani o'ylash olam odobligining boisidir. Tojir safar mashaqqatlarini chekar ekan, mol-dunyosining bugungidan ko'proq bo'lishini istaydi.”⁵ degan fikrlari orqali ta'kidlagan. Ma'rifatparvar pedagog bu yerda inson faoliyatining muvaffaqiyati kelajakni rejalashtirish va uzoqni ko'ra bilish qobiliyati bilan bevosita bog'liqligini ta'kidlaydi. Fitrat fikrining markazida kelajakni oldindan o'ylash g'oyasi turadi. Zamonaviy tadbirkorlikda bu strategik fikrlash va rejalashtirish ko'nikmalari hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyoti uchun yoshlarning har biri bugungi zamon talablaridan bo'lgan zamonaviy texnologiyalardan foydalana olishi, pulni to'g'ri taqsimlay olishi, tijoriy bilimlarni egallashi, tadbirkorlik ko'nikmalariga ega bo'lishi talab etiladi. Fitrat shu o'rinda zamonaning bu talabiga “Har bir qavm uchun tijorat va puldorlik aql va odat yuzasidan zarur...”⁶ deya e'tirof etadi. Fitratning ushbu fikrlari yoshlarning iqtisodiy qaror qabul qilishda bilimga tayanib mantiqiy fikrlash va tahliliy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishni ko'zda tutadi. Bu o'rinda Fitrat tadbirkorlik va puldorlik jamiyat hayotining muhim iqtisodiy barqaror madaniyati sifatida o'quvchilarda moliyaviy savodxonlik, iqtisodiy intizom, ijtimoiy mas'uliyat kabi iqtisodiy odatlarni shakllantirish sifatida amalga oshiriladi.

Fitrat jamiyat rijovlanishini mustaqil taraqqiyot yo'liga olib chiqishning bir necha yo'lini taklif etadi va bu g'oyani amalga oshirish yo'lida sobitqadamlik bilan kurash olib boradi. Mustaqillikka erishishning eng asosiy yo'li sifatida millatni, xalqni o'qimishli, ma'rifatli qilish, jamiyatning barcha qatlamlariga ziyo tarqatish tarixan doimo ozod va mustaqil yashashga intilgan buyuk millat ekanligi ruhiyatini unga singdirish, dunyo xalqlari erishgan ma'rifat va madaniyatidan, ilmiy texnik taraqqiyotidan bahramand bo'lish, odamlarda vatan taqdiri va istiqboli uchun mas'ullik hissini uyg'otish, mamlakatni xom-ashyo yetkazib beruvchi hudud bo'lib

⁵ Fitrat A. Hind sayyohi bayonoti.//Tanlangan asarlar.1-jild-Toshkent..Ma'naviyat 2000. –B.-141-142.

⁶ Fitrat A. Hind sayyohi bayonoti.//Tanlangan asarlar.1-jild-Toshkent..Ma'naviyat 2000. –B.-161.

qolmaslikga chaqirish, uning uchun iqtisodiy tafakkur tuyg'usini shakllantirish deb bildi.

Xulosa: Abdurauf Fitrat jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida iqtisodiy faollikni ilgari suradi va savdo, hunarmandchilik hamda ishlab chiqarishning rivojlanishi milliy farovonlikka olib kelishini asoslaydi. Bu g'oyalar zamonaviy tadbirkorlik ta'limining asosiy tamoyillari — iqtisodiy savodxonlik, kasbiy yo'naltirilganlik va faol fuqarolik pozitsiyasi bilan to'liq uyg'unlashadi. Abdurauf Fitratning "Hind sayyohi bayonoti" asari o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ma'naviy-nazariy manba hisoblanadi. Asarda ilgari surilgan ilmga intilish, mehnatsevarlik, hunar egallash, tashabbuskorlik va shaxsiy mas'uliyatga oid g'oyalar zamonaviy tadbirkor shaxsini tarbiyalash bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu asarni ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish o'quvchilarda iqtisodiy jihatdan faol, mustaqil fikrlovchi va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'sha oladigan shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev.Sh.M "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi.
<https://yuz.uz/uz/news/jadidlar-milliy-ozlik-istiqlol-va-davlatchilik-goyalari-mavzusidagi-xalqaro-konferentsiya-ishtirokchilariga>
2. Fitrat A. Hind sayyohi bayonoti.//Tanlangan asarlar.1-jild-Toshkent..Ma'naviyat 2000.
3. Boboqulova.D.M. "O'quvchilarga dastlabki tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirish" Toshkent.: 2022.
4. Ziyoyev X. Jadidlar harakatining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy zamini (XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asrning boshlari) // Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – Toshkent.: Universitet, 1999.

5. Ibragimov.I. Turkistonda jadidchilik harakati va uning rivojlanish tendensiyalari. Ilm sarchashmalari. -Urganch.: 2022.

6. Qudratov.Sh.Yo Buxoro amirligida jadidlarning tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha yangicha qarashlarining vujudga kelishi. International Journal of Intellectual and Cultural Heritage. 31thMay 2022